

## O'QUVCHILARDA AXBOROT BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA SAVODXONLIKNING O'RNI

**Abduzoxid Mannotovich Mamonov**

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 12-umumta'lim maktabi direktori

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilarda axborot bilan ishslash madaniyatini shakllantirishda media savodxonlikni oshirishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, Media savodxonlikni rivojlantiruvchi darslar, Axborot manbalarini qiyoslash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi topshiriqlar, Internet va elektron manbalardan foydalanish, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish, dasturiy ta'minot va axborot tahlili vositalari haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** media, internet, axborot, onlayn ta'lim, dasturiy ta'minot, interaktiv muhi, feyk axborotlar, pedagogik yondashuvlar, zamonaviy ta'lim.

### THE ROLE OF MEDIA LITERACY IN FORMING THE CULTURE OF WORKING WITH INFORMATION IN STUDENTS

### ABSTRACT

In this article, exercises aimed at the development of critical thinking in the formation of a culture of working with information in students, lessons that develop media literacy, tasks that form the skills of comparing and analyzing information sources, using the Internet and electronic resources, information security and personal data protection we are talking about doing, using online learning platforms, software and information analysis tools.

**Keywords:** media, Internet, information, online education, software, interactive information, fake information, pedagogical approaches, modern education.

### Kirish

Media savodxonlik va axborot xavfsizligi zamonaviy axborot jamiyatida, ayniqsa, globallashuv davrida o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotida keng tarqagan bo'lib, ular turli xil axborotlar manbalariga tez va keng miqyosda kirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Biroq bu axborot oqimlari orasida turli xil yolg'on axborotlar, manipulyasiya qilingan ma'lumotlar va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar ham mavjud.

Yoshlarni bu xavflarga qarshi himoya qilish va ularni yolg‘on axborotdan saqlash uchun media savodxonlik va axborot xavfsizligi bo‘yicha bilimlarni rivojlantirish zarur.

Globallashuv davrida axborot madaniyati yoshlar uchun muhim tushunchaga aylandi, chunki ular turli xil axborot manbalari bilan doimo bog‘liq bo‘ladi va bu manbalarni to‘g‘ri tushunib, tahlil qilish muhimdir. Global axborot maydonida yoshlar turli xil madaniyatlar, tillar, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar haqida turli xil ma’lumotlarga duch keladilar. Axborot oqimlarining shiddatli o‘sishi natijasida yoshlarning axborotni qabul qilish va uni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Richard Rorti kabi olimlar globallashuvning axborot oqimlariga ta’siri haqida shunday ta’kidlaydilar: “Globallashuv axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonda yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zarurati ham oshib bormoqda”[1]. Bu fikrdan kelib chiqadigan bo‘lsak, globallashuv axborot oqimlarini kengaytirib, har qanday axborotni tez qabul qilish imkoniyatini bersa ham, uning ishonchliligi va haqqoniyligi to‘g‘risidagi masalalarni hal qilish uchun yoshlarni tanqidiy fikrlashga tayyorlash zarur.

Bundan tashqari, Jon Dyui globallashuv jarayonining yoshlar axborot madaniyatiga ta’sirini tahlil qilib shunday deydi: “Globallashuv jarayonida yoshlar turli axborot oqimlariga duch keladilar va bu axborotni tahlil qilish, tanlab olish va manbalarni solishtirish ko‘nikmalarini talab qiladi” [2]. Ushbu fikr globallashuvning yoshlar axborot bilan ishlash qobiliyatiga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

## Asosiy qism

Media savodxonlik bu insonning media vositalarini tushunishi, ulardan to‘g‘ri foydalanishi, tarqatilayotgan axborotning mazmunini tanqidiy baholashi va media manbalarning turli taraflarini chuqur tushunib yetishi bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmuasidir. Zamонавија jamiatda media savodxonlik turli axborotlarni qabul qilishda yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Chunki media savodxonlik axborotning haqqoniyligi, mazmuni, maqsadlari va ortida turgan manfaatlarni tushunib, unga tanqidiy yondashish qobiliyatini rivojlantiradi.

Media savodxonlik, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatiladigan axborotlarga nisbatan ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yoshlar internetdagi turli media platformalar orqali axborot olishadi. Bu manbalarda tarqatiladigan axborotlar ba’zan yolg‘on, noto‘g‘ri yoki manipulyasiya qilingan bo‘lishi mumkin. Rene Xobbs shunday ta’kidlaydi: "Media savodxonlik — bu insonlarni axborot manbalarini to‘g‘ri baholashga, ularning haqqoniyligini tekshirishga va turli manbalarning ta’siridan himoyalanishga



yordam beradigan muhim bilimlardir" (Iqtibos). Bu fikrdan ko‘rinib turibdiki, media savodxonlik yoshlarni media orqali tarqatilayotgan turli axborotlardan to‘g‘ri foydalanishga va yolg‘on axborotlarga qarshi himoyalanishga tayyorlaydi.

Media savodxonlik yoshlarni axborot manbalarini tanlab, ularning ishonchliligi va haqqoniyligini tekshirishga undaydi. Media savodxonlikning rivojlanishi yoshlarga axborotni tanqidiy qabul qilish, uni tahlil qilish va uning manbaini aniqlashda yordam beradi. Shu tariqa, yoshlar turli media manbalarni tahlil qilib, ularning ortida turgan manfaatlarni tushunib yetadilar va yolg‘on axborotlar ta’siriga tushmaydilar.

Media savodxonlik va axborot xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar yoshlarni internet va media vositalardan oqilona foydalanishga tayyorlaydi. Masalan, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, internetda tarqatilayotgan ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish va yolg‘on axborotlarning ta’siridan himoyalanish kabi ko‘nikmalar ularning axborot xavfsizligiga bo‘lgan yondashuvlarini kuchaytiradi.

Globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yolg‘on axborotlarning keng tarqalishi yoshlar uchun katta tahdiddir. Yolg‘on axborotlar (feyk axborotlar) — bu ma’lumotlarning manipulyasiya qilingan yoki noto‘g‘ri yoki maxsus maqsadlarda tarqatilgan turlaridir. Yoshlar bunday axborotlarga oson tushib qolishlari va uning ta’siriga berilgan holda noto‘g‘ri xulosalar chiqarishlari mumkin.

Media savodxonlik va axborot xavfsizligi yoshlar uchun zamonaviy axborot jamiyatida faol ishtirok etish va turli axborot manbalaridan to‘g‘ri foydalanish uchun muhim ko‘nikmalar hisoblanadi. Globallashuv davrida turli yolg‘on axborotlar, manipulyasiya qilingan ma’lumotlar va shaxsiy ma’lumotlar xavflaridan himoyalanish uchun yoshlar media savodxonlikka va axborot xavfsizligiga o‘rganishlari zarur. Axborot xavfsizligiga e’tibor qaratilmagan holda, yoshlar turli xakerlik hujumlari yoki shaxsiy ma’lumotlarning fosh etilishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelishi mumkin. Media savodxonlik va axborot xavfsizligi yoshlarni axborot manbalarini to‘g‘ri baholashga, yolg‘on axborotlarga qarshi kurashishga va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga tayyorlaydi. Frensis Fukuyama ham globallashuvning yoshlar bilimlari va axborot bilan ishlash madaniyatiga ta’sirini alohida qayd etib, shunday fikr bildiradi: “Yoshlarni global axborot oqimlariga tayyorlash jamiyatning kelajagini yaratishda muhim o‘rin tutadi, chunki axborotga to‘g‘ri yondashuv va uni to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasi jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi” [4]. Bu fikrdan yoshlarni globallashuv sharoitida axborot bilan ishlashga tayyorlash jamiyatdagि intellektual va ma’naviy salohiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Globallashuv jarayoni axborot oqimlarining tezkor va turli manbalar orqali tarqalishiga sabab bo'ldi, bu esa yoshlarni axborot bilan ishlashga tayyorlash zaruratini keltirib chiqardi. Globallashuv sharoitida axborot manbalari ko'payib, yolg'on va manipulyasiya qilingan axborotlar tarqalishi kuchaygani sababli, axborot madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni tanqidiy fikrlashga, axborotni tahlil qilishga va axborot xavfsizligiga amal qilishga o'rgatish globallashuvning salbiy ta'sirlariga qarshi samarali vosita hisoblanadi. Axborot madaniyati yoshlar uchun global axborot jamiyatida o'z o'mnini topishga yordam beradi, ularni tanqidiy fikrlovchi va axborotni to'g'ri qo'llovchi faol shaxslar etib tarbiyalaydi.

Axborot madaniyati ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va axborotni turli kontekstlarda qo'llash axborot madaniyatining markaziy jihatlaridir. Bu ko'nikmalar yoshlarning bilish jarayonida, axborot bilan ishlashda va ta'limdagi samaradorliklarini oshirishda asosiy o'rinni tutadi. Axborot madaniyati yoshlar uchun axborotni tushunib yetish, uni to'g'ri tahlil qilish va ishonchli manbalardan foydalanishda yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida axborotni to'g'ri qabul qilish va uni tahlil qilish ko'nikmalari o'quvchilarning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Bugungi kunda yoshlar turli xil axborot manbalaridan foydalanishadi: internet, ijtimoiy tarmoqlar, kitoblar va media vositalari. Ammo axborot manbalari turli mazmunga ega bo'lishi va turli darajada ishonchli bo'lishi mumkin, shu sababli axborotni to'g'ri qabul qilish va uni tahlil qilish qobiliyatini yoshlarning o'quv jarayonida samarali bilim olishiga yordam beradi.

Axborotni to'g'ri qabul qilish va tahlil qilish ko'nikmalari yoshlarning bilish jarayonini boyitadi. Masalan, ular turli axborot manbalarini qiyoslab, ma'lumotning haqqoniyligi va mazmunini baholashni o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirishga yordam beradi, chunki axborotni faol qabul qilgan yoshlar uni qayta ishlab, undan yangicha xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. To'g'ri qabul qilish va tahlil qilish yoshlarga o'quv jarayonida turli mavzularni chuqurroq tushunib yetishga yordam beradi. Masalan, tarix yoki adabiyot darslarida yoshlar turli manbalardan ma'lumot olib, ularni qiyoslaydilar va tahlil qiladilar. Bu jarayon axborotni faqatgina qabul qilishdan tashqari, uni chuqur tahlil qilish, manba ortida turgan nuqtai nazarni aniqlash va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'quv jarayonida axborotni tahlil qilish qobiliyatini yoshlarning muvaffaqiyatli ta'lim olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Axborotni tahlil qilish orqali yoshlar ma'lumotlarning



mantiqiyligini, dalillar asosida to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiradilar. Axborot madaniyati shakllangan o‘quvchilar axborotni tanlab oladi, uni turli manbalardan tahlil qiladi va to‘g‘ri xulosalar chiqaradi, bu esa ta’limda yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash zamonaviy ta’limning markaziy ko‘nikmalaridan biri bo‘lib, axborot madaniyati uni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Axborot madaniyati yoshlarni axborotni faol qabul qilishga, uning mazmunini tanqidiy tahlil qilishga va mantiqiy xulosalar chiqarishga undaydi. Tanqidiy fikrlash axborotni faqat qabul qilish emas, balki uning mantiqiy tuzilishi va mazmunini chuqur tushunishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon yoshlarning intellektual rivojlanishiga katta ta’sir qiladi.

Tanqidiy fikrlash yoshlarni axborotni mustaqil qabul qilish va uni turli nuqtai nazarlardan baholashga yordam beradi. Masalan, yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni yoki ommaviy axborot vositalaridagi ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilib, uning ortida turgan manfaatlar va maqsadlarni aniqlashga o‘rganadilar. Bu jarayon ularning fikrlash qobiliyatini oshiradi va ularni turli axborot manbalarini qiyoslab, mantiqqa asoslangan xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Axborot madaniyati tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun turli manbalarni qiyoslash, ularning ishonchlilagini baholash va ulardan yangicha xulosalar chiqarishga yordam beradi. Masalan, yoshlar matematika yoki biologiya darslaridagi nazariy ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llashlari mumkin bo‘lgan holatlarni o‘rganib, ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni turli kontekstlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradilar. Bu jarayon yoshlarni tanqidiy fikrlovchi va bilimlarini amalda qo‘llovchi shaxslarga aylantiradi.

Tanqidiy fikrlashning rivojlanishi ta’lim jarayonini to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi. Axborot madaniyati yoshlarni faol o‘quvchilarga aylantiradi, chunki ular axborotni avtomatik ravishda qabul qilish o‘rniga, uni tanqidiy baholashga va yangicha nuqtai nazardan tahlil qilishga o‘rganadilar. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini yoshlarga murakkab muammolarni tushunish va ularga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishda katta yordam beradi.

Axborot madaniyati ta’lim jarayonida yoshlarning axborot bilan ishslash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi. Axborotni to‘g‘ri qabul qilish va tahlil qilish qobiliyati o‘quvchilarga bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, manbalarni qiyoslab, ulardan yangicha xulosalar chiqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, axborot madaniyati tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy vositasi bo‘lib, yoshlarni axborotni chuqur tahlil qilish, turli nuqtai nazarlardan baholash va to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Axborot madaniyati yordamida yoshlar zamonaviy axborot

jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritadigan, tanqidiy fikrlovchi va bilimlarni to‘g‘ri qo‘llaydigan shaxslarga aylanadilar.

Axborot jamiyatining rivojlanishi yoshlar va jamiyatning boshqa qatlamlari uchun yangi imkoniyatlarni ochib bersa-da, axborot oqimlaridagi yolg‘on axborotlar va axborot zaharlanishi (informasion toksiklik) katta tahdidlardan biriga aylandi. Bugungi kunda turli manbalardan tarqatilayotgan yolg‘on axborotlar yoshlarning fikrlash jarayonini buzishi, ularni noto‘g‘ri xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, yoshlarni yolg‘on axborotlarni tanish va unga qarshi kurashishga o‘rgatish axborot madaniyatining muhim vazifasi hisoblanadi.

Yolg‘on axborotlar, yoki feyk ma’lumotlar, jamiyatga turli maqsadlarda tarqatiladi: ijtimoiy-siyosiy manipulyasiya, iqtisodiy manfaatlar yoki jamoat fikrini o‘zgartirish kabi sabablar uchun. Axborot jamiyatida axborot tarqatishning osonlashgani sababli yolg‘on axborotlar jadal tarqaladi va ko‘pincha haqiqiy axborot bilan aralashib ketadi. Bu holat yoshlar va boshqa foydalanuvchilarni yolg‘on ma’lumotlarning ta’siriga tushib qolishiga sabab bo‘ladi.

Axborot madaniyatining asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni yolg‘on axborotlarni tanish va ularga qarshi kurashish ko‘nikmalariga o‘rgatishdir. Bu jarayon yoshlarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular axborotni qabul qilishda va uning haqqoniyligini tekshirishda faol ishtirok etishlari zarur. Yoshlar axborotni tahlil qilish, uning manbaini aniqlash va turli manbalardan qiyoslash orqali yolg‘on axborotlarni aniqlay olishlari lozim. Rene Xobbs shunday ta’kidlaydi: “Yolg‘on axborotlardan himoyalanish uchun yoshlar axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak, chunki bu ularni manipulyasiyadan himoya qiladi” [3].

Axborot madaniyati yoshlarga axborot manbalarini qiyoslash, ularning ishonchlilagini baholash va ulardan kelib chiquvchi manfaatlarni tushunib yetishga yordam beradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yoki xabarlar veb-saytlarida tarqatiladigan axborotlarni turli manbalardan tekshirib, yoshlar uning haqiqiyligini aniqlashlari mumkin. Bu jarayonda yoshlar axborotni chuqur tahlil qilib, yolg‘on ma’lumotlardan himoyalanishga o‘rganadilar.

Shuningdek, axborot madaniyati yoshlarni turli turdagи yolg‘on axborotlar (masalan, fotoshoplangan rasmlar, noto‘g‘ri mantiqiy xulosalar, to‘qib chiqarilgan faktlar) bilan ishlashda yangicha yondashuvlar ishlab chiqishga undaydi. Yolg‘on axborotlar yoshlarning fikrlash jarayonini buzishi va ularning turli manipulyasiyalar ta’siriga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, axborot madaniyati yoshlarni yolg‘on axborotlarga qarshi kurashish ko‘nikmalariga tayyorlaydi, ularni faol fikrlovchi va axborotni tahlil qiluvchi shaxslarga aylantiradi.

Zamonaviy ta'lif jarayonida axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Axborot bilan ishlash madaniyatining shakllanishi uchun faqat axborotni tushunish ko'nikmalari emas, balki uni tahlil qilish, tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni ajratish va axborot xavfsizligiga rioya qilish kabi muhim jihatlar o'rgatilishi lozim. Bu jarayonda turli pedagogik yondashuvlar va interaktiv metodlardan foydalanish muhim o'rinni tutadi.

Axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar yoshlarni axborot bilan faol va tanqidiy ishlashga o'rgatadi. Axborot jamiyatida yoshlar turli xil axborot manbalari bilan ishlashlari, ularni tahlil qilishlari va ishonchli manbalarni tanlashni o'rganishlari zarur. Bizningcha, bu jarayonda quyidagi pedagogik yondashuvlar va interaktiv metodlar alohida o'rinni tutadi:

**1. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar:** axborot madaniyatini shakllantirishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu jarayon yoshlarni axborotni avtomatik ravishda qabul qilish emas, balki uning mazmunini chuqur tahlil qilish va unga savollar berishga o'rgatadi. Masalan, darslarda turli mavzular bo'yicha ma'lumotlarni qiyoslash, ularni tahlil qilish va manbalarning haqqoniyligini baholash orqali yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyati oshiriladi.

**2. Media savodxonlikni rivojlantiruvchi darslar:** axborot madaniyatining muhim jihatlaridan biri media savodxonlikdir. Bu darslar orqali yoshlar turli media manbalardan foydalanishda tanqidiy yondashishni, media orqali tarqatilayotgan axborotni to'g'ri tushunishni va manbaga qarab axborotni baholashni o'rganadilar. Masalan, televizion yoki internet manbalaridagi axborotni tahlil qilish, turli axborotlarni qiyoslash, ularning maqsad va manfaatlarini aniqlash yoshlarga media savodxonlikni rivojlantirishga yordam beradi.

**3. Axborot manbalarini qiyoslash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi topshiriqlar:** axborot madaniyatini shakllantirish uchun axborot manbalarini qiyoslash va ularning ishonchlilagini baholash ko'nikmalari alohida o'rinni tutadi. Dars jarayonida yoshlar turli manbalardan ma'lumot olib, ularni tahlil qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar bajaradilar. Bu metod axborotni faqat qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish va turli manbalardan kelgan ma'lumotlarni qiyoslash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

**4. Guruhlarda ishlash va muammolarni birgalikda hal qilish:** axborot madaniyatini shakllantirishda guruhli ishlar interaktiv metod sifatida faol qo'llaniladi. Bu jarayonda yoshlar bir-birlari bilan muloqot qilib, axborotni birgalikda tahlil qiladilar va uni turli jihatlardan o'rganadilar. Masalan, guruhdagi yoshlar turli mavzular bo'yicha axborotni qidirib topish, uni tahlil

qilish va natijalarini birga muhokama qilish orqali axborot madaniyatini rivojlantiradilar.

**5. Ta'limda loyiha yondoshuvi:** axborot madaniyatini shakllantirish uchun loyiha metodlaridan foydalanish ham juda samarali hisoblanadi. Bu metod yoshlarni mustaqil axborot qidirish, uni tahlil qilish va yangicha loyihalar yaratishga undaydi. Loyihalar ustida ishlash jarayonida yoshlar axborotni faol qabul qiladilar, turli manbalardan foydalanib, ularni tahlil qiladilar va o'z loyihalarini yaratishda undan samarali foydalanadilar.

Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari axborot madaniyatini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari yoshlarga axborotni tez va samarali izlash, uni tahlil qilish va qayta ishlash imkoniyatini beradi. Axborot madaniyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishda, bizningcha, quyidagi jihatlarga e'tbor qaratish maqsadga muvofiq:

**1. Internet va elektron manbalardan foydalanish:** internet turli axborot manbalariga kirish imkoniyatini berib, yoshlarning axborotni topish va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Turli elektron manbalar, bilim platformalari va internetdagi ma'lumotlar yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonda yoshlar axborotni faol izlashlari, ularning mazmunini qiyoslashlari va turli manbalardan kelgan ma'lumotlarni tahlil qilishlari mumkin.

**2. Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish:** axborot texnologiyalari orqali axborot xavfsizligi masalasi ham muhim o'rinn tutadi. Axborot madaniyatini shakllantirish jarayonida yoshlar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internet xavfsizligi qoidalariga rioya qilish va zararli manbalardan qochishni o'rganishlari zarur. Axborot xavfsizligini ta'minlash yoshlarning axborot texnologiyalari bilan ishlashdagi muhim ko'nikmalaridan biridir.

**3. Onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish:** axborot madaniyatini rivojlantirishda onlayn ta'lim platformalari yoshlarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirish imkoniyatini beradi. Turli platformalar orqali yoshlar axborotni izlash, mustaqil loyihalar ustida ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Masalan, Coursera, Khan Academy va boshqa ta'lim platformalari yoshlarga keng bilim manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

**4. Dasturiy ta'minot va axborot tahlili vositalari:** axborot madaniyatini rivojlantirishda turli dasturiy ta'minotlar va axborot tahlili vositalari yoshlarga axborotni chuqurroq tahlil qilishda yordam beradi. Masalan, Excel, Power BI, Google Analytics kabi vositalar axborotni qayta ishlash va tahlil qilishda keng foydalaniladi. Yoshlar bu vositalardan foydalanib axborotni

qayta ishlaydilar, uni tahlil qiladilar va to‘g‘ri xulosalar chiqarishni o‘rganadilar [5].

Axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va axborot texnologiyalari yoshlarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish yoshlarga axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va uni ishonchli manbalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Axborot madaniyati yoshlarni axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlab, ularning tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligiga rioya qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

O‘quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Axborot oqimlarining shiddatli o‘sishi, yolg‘on axborotlar tarqalishi va globallashuv jarayoni yoshlarni axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va uni tanqidiy baholashga yo‘naltirish zaruratini kuchaytirmoqda. Axborot madaniyati yoshlarni yolg‘on ma’lumotlardan himoya qilish, axborot xavfsizligiga rioya qilish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga yordam beradi. Shuningdek, axborot madaniyati ularni global axborot jamiyatida to‘g‘ri yo‘naltirib, tanqidiy fikrlovchi va axborotdan samarali foydalanuvchi shaxslarga aylantiradi.

## Xulosa

Axborot tushunchasi ta’lim jarayonidagi markaziy tushunchalardan biri bo‘lib, uni to‘g‘ri tushunib, faoliyatda maqsadga muvofiq qo‘llash pedagogik mazmunning asosini tashkil qiladi. Axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va qayta ishlash o‘quvchilarning ta’limdagи muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Bu jarayon yoshlarning intellektual rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Axborot madaniyatini shakllantirish masalasi pedagogika sohasida keng o‘rganilgan. Pedagogik tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, axborot madaniyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, milliy va xalqaro metodlarni uyg‘unlashtirish ushbu jarayonda samaradorlikni oshiradi. Globallashuv davrida axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini yoshlarni urchun muhim ahamiyatga ega. Axborot oqimlari kengayib, yolg‘on ma’lumotlar tarqalishi kuchayib borayotgani sababli, o‘quvchilarda axborotni tanqidiy qabul qilish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bu jarayon yoshlarni axborot xavflaridan himoya qiladi va ularni to‘g‘ri qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Pedagogik yondashuvlar yordamida axborot madaniyatini shakllantirish interaktiv metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar, media savodxonlik darslari va guruhli ishlar

yoshlarni axborot bilan to‘g‘ri ishslashga o‘rgatadi. Axborot xavfsizligi axborot madaniyatining muhim qismi bo‘lib, yoshlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va axborot xavflariga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan. Axborot madaniyati shakllangan yoshlari shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalari amal qiladilar va axborot xavfsizligiga rioya qiladilar.

## REFERENCES

1. Rorti R. Otveti na voprosi «Logosa» // Logos. — 1999. — № 5. — S. 20—21.
2. Djon Dyui. Shkoli budushego // Narodnoye obrazovaniye. 2000, №8. [http://jorigami.ru/PP\\_corner/Classics/Dewey/Dewey\\_Schools\\_of\\_Future.htm](http://jorigami.ru/PP_corner/Classics/Dewey/Dewey_Schools_of_Future.htm)
3. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. 2011. Beverly Hills: Corwin/Sage. –R.255.
4. Francis Fukuyama. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. Free Press, 1995. ISBN 0-02-910976-0
5. Zamonaviy raqamli axborot tizimlaridan talaba-yoshlarning foydalanishida ta’limtarbiyaning ahamiyati. I.Q.Ximmatov, M.A.Sulaymonov <https://mppam2024.qarshidu.uz>